# OILADA SIBLING MAQOMINING XULQ-ATVOR MUNOSABATLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA PSIXOLOGIYADA O`RGANILISHI

Turdiyeva Nigora G'ani qizi
O'zbekiston milliy universiteti
Jizzax filiali, "Oila psixologiya"si kafedrasi o'qituvchisi
nigoraturdiyeva2004@gmail.com

Ergasheva Klara
O'zbekiston milliy universiteti
Jizzax filiali, "Oila psixologiya"si yo'nalishi 3- bosqich talabasi

**Annotatsiya**
Maqolada Oiladagi sibling munosabatlarining shaxslarga ta'sir etishi jarayonidagi shaxs o'zligini anglash jarayonida paydo bo'luvchi psixologik xususiyatlari, oilaviy munosabatlarning farzandlar tarbiyasiga ta'sirini o'rgangan olimlar nazariyalari masalalari ham keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, kommunikatsiya, semantik, koordinata, empatiya, frustratsiya, stereotip, sotsializatsiya, virtualizatsiya, fobiya, Sibling, bixevioral, er-xotin munosabati,

**Аннотация**
В статье также широко освещаются психологические особенности влияния сиблинговых отношений на личности, которые проявляются в процессе осмысления личности личности, и теории ученых, изучавших влияние семейных отношений на воспитание детей.

**Ключевые слова.** семейная среда, социально-экономическая, коммуникативная, семантическая, координационная, эмпатия, фрустрация, стереотип, социализация, виртуализация, фобия, ригидная, сиблинговая, поведенческая, парные отношения.

**Annotation**
In the article, the psychological features of the influence of sibling relationships on individuals, which appear in the process of understanding the identity of the individual, and the theories of scientists who have studied the influence of family relationships on children's upbringing are also widely covered.

**Keywords.** family environment, socio-economic, communication, semantic,

coordinate, empathy, frustration, stereotype, socialization, virtualization, phobia, rigid, Sibling, behavioral, couple relationship.

Jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola,er-xotin, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. SHuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o'rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz. Bu qarashlarni, fikrlarni sizning hukmingizga havola etish orqali oila, o'zaro munosabatlar muammolari bizning hayotimizda doimo muhim masalalar sirasiga kirishini qayd etamiz.

Oila ijtimoiy hayotning doimiy ekanligini avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning bosqichma bosqichligini boshqaradigan kelajak avlod uchun farzandlar qanday bo'lib yetishishiga o'z tasirini o'tkazadigan makon hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi oilada bolalar tarbiyasi bilan bevosita uzviy bog`liq. Har bir kishi ilk rivojlanishni oiladan shakllantiradi. Oila mehr - muhabbat, jipslik, birdamlik, manbaidir. Ana shu o'zbekona qadriyatlar asosida jamiyat rivojlanib boradi. Haqiqatdan ham asrlar davomida sharqona va milliy tarbiyada shaxsning umuminsoniy umummadaniy dunyoqarashi shakllanishi oiladan boshlanadi. Inson farzandining milliy tarbiyasi asosida manaviy tomondan salohiyati rivojlanib boradi. Milliy tarbiya bu - ota bobolarimiz tomonidan qadrlangan eng buyuk hislatlarning oilada farzandlarga singdirish asosida yuzaga chiqib boradi. Qadimdan sharq mutaffakkirlarimiz o'z asarlarida oila tarbiya o'chog'i sifatida qarab kelganlar. Oila tarbiya o'chog'i ekanligi ,oilada farzand tarbiyasi buyuk mutaffakkirlarimiz asarlarida xam o'z aksini topgan. Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda nomoyon bo'lgan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar. O'rta asrlarning buyuk arbobi, olim-ensiklopedist Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ko'pgina asarlarida inson odobi va axloqi xususidagi noyob fikrlar o'z ifodasini topgan, Mutaffakkir o'zining "Minerologiya", "Geodeziya", "Hindiston", "O'tgan avlodlar obidalari" nomli asarlarida ayol shaxsi, uning komoloti, aql-idroki, halovat va lazzati, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va did, poklik va xudbinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta'rif bergan. Abu Nasr Forobiyning inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, umuman axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari umumfalsafiy qarashlar va tushuntirishlardan iborat o'g'it bo'lib, axloq nazariyasini boyitadi. Uning ta'limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayirligi, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi, oila a'zolarining bir-

biriga samimiy munosabatlari, mehru oqibatlari esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u -bilig" asarida Oilaviy tarbiya-bolalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda eng asosiy narsaligini alohida ta'kidlaydi. "Mobodo, bolalarning xulq-atvori yomon bo'lsa, bunda gap bolada emas ota aybdor", - deydi. Bu fikrdan har bir oilada ota-onalar o'z farzandlariga doimo barcha sohalarda namuna bo`lishlari shart degan g`oyani qo'yish mumkin. O'zining nabirasi Gilonshohga atab yozgan "Qobusnoma" asarlari bilan dunyoga mashxur allomalarimizdan biri Kaykovus ham o'a asarlarida oilaning muqaddas ekanligi, uning farzand tarbiyasiga alohida o'rni mavjudligini ta'kidlab o'tadi. Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Sharq mutaffakkirlaridan Abu Ali ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilining qo'llanilishini yo'qlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolan qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlangan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning "Tadbiri manzil" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Xulosa qilib aytganda, oila muhiti - bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarining yig'indisi va nihoyat kattalarning bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir. Oila tarbiyaning asosi, makoni va poydevoridir. Bolaning kim bo`lib etishishi, asosan, oiladagi muhitga – tarbiyaviy ta'sirga bog`liq. Oila tarbiyasining samarasi bevosita oilada ota onalar obro`si va shaxsan namuna ko`rsatishlariga bog`liq. Axloq-odobga oid hadislarning birida "Har bir ota o'z farzandlariga xulqi odobdan buyukroq meros berolmaydi", -deyilgan. O'zbek xalq maqollaridan birida "Har kim ekkanini o'rar", -deb bejiz ta'kidlanmagan. Shunday ekan, oilada ota-onalarning farzandlar oldida obro'ga ega bo'lishi yuqorida sanab ko'rsatilgan ota-onalar obro'sining tarkibiy qismlarini otaonalarning ilmiy-nazariy o'zlashtirishlari va ularni oila sharoitida farzandlar tarbiyasida nuqsonlarsiz, uzluksiz qo'llash bilan bog'liq ko`nikma va tajribalari bilan amalga oshiriladi hamda oila tarbiyasining samaradorligini ta'minlashga zamin yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdullayeva D., Yarqulov R., Atabayeva N, Oila psixologiyasi. T 2015, 7 b.
2. G'.Shoumarov, I.O. Haydarov N.A. Sog'inov, F.A. Akramova, G. Solihova, G.
3. ila psixologiyasi, T 2010., Sharq nashriyoti, 211 b.
4. Uskanovich, O. R., & Abdurazakovna, O. S. (2023). OILADA AYOLNING
5. PSIXOLOGIK SAVODXONLIGINING PSIXOLOGIK
6. XUSUSIYATLARI. Journal of new century innovations, 25(4), 72-77.
7. Uskanovich, OR, & Abdurazakovna, OS (2023). INSON ONGINI
8. OZIQLANTIRISH. Yangi asr innovatsiyalari jurnali , 25 (4), 67-71.

9. Uskanovich, Otamuratov Rustam, Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna, Ibodullayeva Nodira. "VIRTUAL MUHITDA O'ZARO SAMARALI TA'SIRINING
10. PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." Yangi asr innovatsiyalari jurnali 25.4 (2023): 62-66.
11. Otamuratov R.U. Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi., Ташкентский государственный стоматологический институт., “Med Union” медицинский научно-практический журнал. Volume 2, Issue 1, 2023
12. Otamuratov R., Otamuratova S. O‘smirlarda kasbiy o‘zligini anglashiga xavotirlanishning ta’siri., O‘zMU XABARLARI., MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI., 2023
13. 1/1 Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi, 140-144 b., Toshkent 2023.
14. Uskanovich, O. R. (2022). PSIXOLOGIYADA XAVOTIRLANISHNING ILMIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 494-498.
15. Otamuratov R.U. O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // CARJIS. 2022.
16. №Special Issue 1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlardagi-kasbiyozligini-anglashidagi-xavotirlanishning-psixologik-xususiyatlari (дата обращения: 30.01.2023). Otamuratov R.U., Ochilova M. EMOTSIONAL INTELEKT
17. TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/emotsional-intelekttushunchasiningpsixologik-o-ziga-xosligi (дата обращения: 30.01.2023).
18. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). INTERNETNING SHAXSGA TA’SIRI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
19. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA
20. TA’SIRINING HISSIY OMILLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
21. Р.У.Отамуратов., Ўқувчиларда касбий мотивациялар шаклланишининг психологик омиллари. Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғундиги. 2021., - 282 б.
22. R.U.Otamuratov, S.A.Otamuratova., Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish., МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами., 2021., 494 b.

23. R.U.Otamuratov., Kasbiy tanlovlardagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari., ГЛОБАЛ ДУНЁДА ПСИХОЛОГИЯ ФАНИ: НАЗАРИЯ ВА
24. АМАЛИЁТ, ЧАҚИРУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР Профессор Эргаш Ғозиевич Ғозиев хотирасига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси материаллари 16 феврал 2022 йил 2022 у., - 379 b.
25. X.Рухиева, Р.Отамуратов., Ўсмирлик даврига хос бўлган суицидал хулқатворнинг психодиагностикаси., “Tafakkur tomchilari”T-2021., 237-241-bet. Sh.E.Yuldashev, R.U.Otamuratov, E.M.Safarova., Voyaga yetmaganlar
26. o‘rtasidagi suisidal holatlar psixoprofilaktikasi va diagnostikasi., “Fan va ta’lim” T-2022., 4,231-bet. R.U.Otamuratov., Kasbiy motivatsiyalarda qo‘rquv va xavotirlanish psixokorreksiyasi, magistrlik dis., T-2022., 79-bet.
27. Mushtariy, R., & Sohiba, A. A. (2023). TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA BO’LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY VA AXLOQIY MADANIYATINI SHAKILLANISHINING TUZILMASI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 60-64.
28. Fayoza, A., & Mushtariy, R. (2023). KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 64-67
29. Gulnoza, R., & Mushtariy, R. (2023). XOTIN-QIZLARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O ‘RNI VA GENDER TENGLIKNING SIYOSATI MASALAGA AYLANISHI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 355-35.